

TA'LIM SOHASIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Qo'shoqova Dilrabo Egamberganovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

32- maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida psixologik xizmatning o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish, o'quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy yo'nalishini qo'llab-quvvatlashda psixologik xizmat muhim bo'g'in hisoblanadi. Shu sababli psixologik xizmatni zamonaviy talablar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: psixik jarayonlar, muloqot, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, konsultativ ishlar, irodaviy sifatlar, psixologik talablar, analiz, sintez, umumlashtirish.

KIRISH

Ta'lim sohasida psixologik xizmatning asosiy vazifasi o'quvchilarning ruhiy holatini o'rganish, ularning individual xususiyatlarini aniqlash, muammoli vaziyatlarning oldini olish va ta'lim jarayonida samarali psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. Zamonaviy psixologik xizmat an'anaviy yondashuvlardan tashqari, innovatsion va interfaol usullarni qo'llashni talab etadi.

Zamonaviy psixologik xizmatni tashkil etishda diagnostika ishlari muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda kompyuterlashtirilgan testlar, elektron so'rovnomalar va onlayn diagnostika vositalari yordamida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament va emotsional holatini aniqlash imkoniyati kengaygan. Bu usullar qisqa vaqt ichida aniq va ishonchli natijalarga erishish imkonini beradi.

Psixologik maslahat va korreksion ishlarni olib borishda ham zamonaviy texnologiyalar faol qo'llanilmoqda. Individual va guruhli treninglar, psixologik mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, art-terapiya, musiqaterapiya va relaksatsion mashqlar

o'quvchilarning stressga chidamliligini oshirishga, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan yoki moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar bilan ishlashda ushbu usullar samarali natija beradi.

Zamonaviy psixologik xizmatda ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Psixolog tomonidan o'tkaziladigan seminar-treninglar, psixologik ma'ruzalar va maslahatlar orqali ota-onalarning psixologik savodxonligi oshiriladi. Bu esa bolani tarbiyalash va ta'lim jarayonida yagona yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar psixologik xizmatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn maslahatlar, masofaviy psixologik yordam, ijtimoiy tarmoqlar orqali profilaktik ishlar olib borish bugungi kun talabi hisoblanadi. Bunday usullar ayniqsa o'smirlar bilan ishlashda qulay va samarali bo'lib, ularning ochiq muloqotga kirishishini osonlashtiradi.

Ta'lim sohasida psixologik xizmatni zamonaviy usullar asosida tashkil etish o'quvchilarning psixologik salomatligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va kompleks hamkorlik asosida olib borilgan psixologik xizmat ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishida muhim omil bo'lib qolmoqda.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi oqilona, zarur shart-sharoitlar, omillar, qulay vaziyat va muhit yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti maktabgacha yoshdagi bolalar, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari, maxsus o'quv yurtlari va oliy o'quv muassasalari talabalari, o'qituvchilar hamda ota-onalar hisoblanadi.

Tadqiqot obyektiga kirgan shaxslarni yakka tartibda, guruh yoki jamoaviy shaklda o'rganish mumkin. Psixologik xizmatning mazmuni psixoprofilaktika, psixologik ma'rifat va maorif, psixodiagnostika, psixik rivojlantirish va psixokorreksiya hamda psixologik konsultatsiyadan iborat.

Psixologik xizmatlar psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni talab etadi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida va mezonlar asosida tashkil etish, yosh davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi va shaxs shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot olib borish jarayonida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, mavzuga oid adabiyotlar, tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez tamoyillaridan foydalanildi.

Psixologik ishlar majmuasi o'quvchilarni ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida psixologik-pedagogik jihatdan chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini aniqlashga xizmat qiladi.

Diagnostic ishlar yakka tartibda yoki guruhiiy shaklda amalga oshiriladi. Amaliy psixolog yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash, o'quvchilar va talabalarni psixologik tekshiruvdan o'tkazish, o'qituvchilarning kasbiy layoqati va shaxsiy sifatlarini baholash bilan shug'ullanadi.

Psixolog o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, iqtidorini o'rganadi, ularga individual yondashuvni yo'lga qo'yadi, trening mashg'ulotlari o'tkazadi. Shuningdek, xulq-atvoridagi kamchiliklar, aqliy va psixik rivojlanishdagi muammolar sabablarini aniqlaydi. Psixolog boshqa soha mutaxassislari bilan hamkorlikda differensial diagnostika olib boradi, deviant xulq-atvor, giyohvandlik, alkogolizm, huquqbuzarlik holatlarining ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qiladi.

Psixolog o'zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o'quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlariga, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini psixologik-pedagogik korrektsiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bunda:

- ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;
- o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;
- turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;
- o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korrektsiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;
- pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korrektsiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;
- iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;
- pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash. Yangi O'zbekiston o'z-o'zidan qurilmaydi. Buning yo'lida barcha fuqarolar, hamma yosh-u qari birdek o'z

hissasini qo'shishi kerak. Yurt tinchligini himoya qilish va yangi taraqqiyotga erishishda har bir soha vakillari o'z sohasi doirasida hissa qo'shishlari lozim.

XULOSA:

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatlar o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish va ularning umumiy farovonligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Akademik yordam ko'rsatish, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish orqali psixologlar inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishga hissa qo'shadilar. Kelajakdagi tadqiqotlar to'siqlarni bartaraf etishning samarali strategiyalarini aniqlashga va ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarning mavjudligi va sifatini oshirishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Psixologik xizmat haqida Nizom. 1996
2. Z.T.Nishanova. Psixologik xizmat. © "Yangiyul poligraph service" M CHJ, 2007. 3-4betlar.
3. Z.T.Nishanova, M.Xolnazarova. Psixologik xizmat. Toshkent – 2017. 6;13,14-betlar.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-417140?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchilarni psixologikpedagogik qo'llabquvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaror. 577-сон 12.07.2019.
5. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
6. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.
7. ZIYO.NET